

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING O'QISH
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK
MATNLARDAN FOYDALANISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI**

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich,

Namangan davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik matnlardan foydalanishning lingvodidaktik asoslari yoritiladi. Autentik matnlar vositasida talabalarning tilni real kontekstda anglash, madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish, kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy til o'qitish metodlari, CEFR standartlari hamda Vygotskiy, Bruner, Harmer singari olimlarning qarashlari asosida nazariy tahlil va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qish kompetensiyasi, autentik matnlar, ingliz tili o'qituvchilari, lingvodidaktika, CEFR, madaniyatlararo muloqot.

**ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ ЧТЕНИЯ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Солиев Умиджон Юлчивоевич,

Старший преподаватель Намаганского государственного института

иностранных языков, PhD

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

Аннотация: В данной статье освещаются лингводидактические основы использования аутентичных текстов в развитии компетенции чтения у будущих учителей английского языка. С помощью аутентичных материалов открываются возможности для формирования у студентов навыков понимания языка в реальном контексте, развития межкультурной компетенции и укрепления коммуникативных умений. В статье также представлены теоретический анализ и практические рекомендации, основанные на современных методах преподавания языка, стандартах CEFR, а также на взглядах таких ученых, как Виготский, Брунер и Хармер.

Ключевые слова: компетенция чтения, аутентичные тексты, учителя английского языка, лингводидактика, CEFR, межкультурная коммуникация.

LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF USING AUTHENTIC TEXTS IN DEVELOPING THE READING COMPETENCE OF PROSPECTIVE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich,

Senior Lecturer of Namangan State Institute of Foreign Languages, PhD

E-mail: umidjon.soliyev.83@inbox.ru

+99894-216-84-24

Abstract: This article explores the linguodidactic foundations of using authentic texts in the development of reading competence among prospective English language teachers. Authentic materials provide opportunities for students to understand the language in real-life contexts, develop intercultural competence, and strengthen communicative skills. The article also presents a theoretical analysis and practical recommendations based on modern language teaching methods, CEFR standards, and the ideas of scholars such as Vygotsky, Bruner, and Harmer.

Keywords: reading competence, authentic texts, English language teachers, linguodidactics, CEFR, intercultural communication.

Kirish. Ingliz tilini o'qitishga zamonaviy yondashuvlar tilni o'rganish jarayonida to'rt asosiy til ko'nikmasini – tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirishni uyg'un rivojlantirishni talab etadi. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun o'qish kompetensiyasining shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan autentik matnlar o'qitish jarayonida beqiyos vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular real hayotda qo'llaniladigan tilda yozilgan va talabani til muhiti bilan bevosita tanishtiradi.

O'qish kompetensiyasi bu til o'rganuvchining yozma matnlarni mazmunan tushunish, axborotni izlab topish, tahlil qilish, fikr yuritish va ularni kommunikativ vazifalarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya xorijiy tilni o'rganish jarayonining asosiy komponentlaridan biri bo'lib, til bilimlarini real hayotga tatbiq qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'qish kompetensiyasi nafaqat til strukturasi va leksikasi haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni, balki talabaning fikrlash doirasini kengaytirish, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, analitik va tanqidiy yondashuvni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu boisdan, o'qish kompetensiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Tadqiqotchilar o'qish kompetensiyasini bir nechta funksional va kognitiv komponentlarga ajratishadi. Jumladan, M. Celce-Murcia tomonidan ishlab chiqilgan kompetensiyalar modeliga ko'ra, o'qish kompetensiyasi quyidagi elementlardan iborat:

Diskursiv kompetensiya – matnning umumiy mazmuniy bog‘liqligini tushunish, muallifning maqsadi va pozitsiyasini anglash.

Lingvistik kompetensiya – grammatik, leksik va sintaktik birliklarni aniqlab, ularni kontekstda to‘g‘ri talqin qilish.

Sotsiomadaniy kompetensiya – matnda aks etgan madaniy kodlarni anglash, stereotip va konnotatsiyalarni farqlay olish.

Strategik kompetensiya – o‘qish jarayonida tushunarsiz yoki murakkab joylarni taxmin qilish, kontekst asosida mantiqiy xulosa chiqarish.

Bu kompetensiyalar birgalikda ishlaydi va talabaning matnni chuqur anglash hamda uni shaxsiy va professional ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlashiga xizmat qiladi.

Chet tillarni bilishning umumyevropa kompetensiyalari (CEFR)ga muvofiq, o‘qish kompetensiyasi A1 darajadan C2 darajagacha bosqichma-bosqich rivojlanadi. Har bir darajada talabaning o‘qiy olish qobiliyati, foydalanadigan strategiyalari va matnlar bilan ishlash imkoniyatlari belgilab qo‘yilgan [5]. Masalan:

A2 daraja: oddiy kundalik matnlarni tushunish (menyu, e‘lonlar, qisqa e-mail).

B1 daraja: tanish mavzudagi maqolalarni tushunish, fikr yuritish.

C1-C2 daraja: murakkab ijtimoiy, siyosiy, ilmiy matnlarni tushunish, tahlil qilish va ularning mazmuni asosida bahs yurita olish.

Bu mezonlar bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligida dasturiy va metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini shakllantirish – ularning nafaqat til bilish darajasini oshirish, balki professional-pedagogik faoliyatida til resurslaridan foydalana olish ko‘nikmasini rivojlantirishdir. Bu jihat quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

Didaktik jihatdan: O‘qituvchi dars uchun mos matnlarni tanlay olishi, ularni bosqichma-bosqich tahlil qilib, talabalarning bilim darajasiga mos mashqlar yaratishi zarur.

Madaniy jihatdan: O‘qituvchi autentik matnlar orqali boshqa madaniyat vakillarining fikrlash tarzini, qadriyatlarini tushunadi va talabalarga tushuntira oladi.

Kasbiy jihatdan: O‘qish kompetensiyasi ilmiy maqolalar, metodik qo‘llanmalar va boshqa kasbiy matnlarni mustaqil o‘qib tushunish va undan dars jarayonida foydalanish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchilardan M.Uest, I.M.Berman, V.A.Buxbinder, Z.I.Klichnikova, S.K.Folomkina, J.J.Jalolov, S.Saidaliyev, N.V.Barishnikova va M.L.Vaysburdlar o‘qishni o‘rgatish bo‘yicha fundamental ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqotlarda ingliz tilida o‘qish nutq faoliyati turini o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qishni

o'rgatishni axborotni o'zlashtirishdagi o'rni va ahamiyati kabi metodik masalalar atroflicha o'rganilgan, ularga doir qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Til o'qitish sohasidagi yetuk olimlar o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga turlicha yondashgan. Jumladan, J.J.Jalolovning ta'kidlashicha o'qish malakasi uch bosqichli faoliyat bo'lib, nutq birligining ko'rish, uni o'qish va ma'nosini tushunish bosqichlaridan tashkil topadi[1].

L.S.Vygotskiy o'qish faoliyatini yaqin taraqqiyot zonasi doirasida tashkil qilish orqali yuqori darajadagi bilim va malakalarni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [6].

J.Bruner esa talabalarni yangi matnlar bilan tanishtirishda avvalgi bilimlar bilan integratsiyalash, ya'ni konstruktivistik yondashuvni qo'llash zarurligini ilgari suradi [7].

J.Harmer o'qish jarayonini kommunikativ kontekstda tashkil qilish, real nutqiy vaziyatlarga mos mashqlar bilan boyitish kerakligini qayd etadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Autentik matnlarning o'quv jarayonidagi o'rni muhim hisoblanadi. Autentik matnlar – bu til egasi tomonidan tabiiy kommunikativ ehtiyoj asosida yaratilgan, ya'ni til o'rganish maqsadida emas, balki real hayotiy ma'lumotlarni yetkazish uchun yozilgan matnlardir [9]. Bunga gazeta maqolalari, reklama e'lonlari, ijtimoiy tarmoq postlari, intervyular, kundaliklar, bloglar, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar va boshqa turdagi yozma materiallar kiradi. Ingliz tili o'rganish jarayonida bunday matnlardan foydalanish talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda autentik matnlar quyidagi afzalliklari bilan ajralib turadi:

Reallikka yaqinlashtiradi. Talabalar darsda uchratgan til materiallari haqiqiy hayotdagi til namunalari bilan uyg'un bo'ladi, bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi[10].

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiradi. Matnlar orqali til bilan bog'liq madaniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va stereotiplar anglashiladi.

Kognitiv faoliyatni faollashtiradi. Talabalar murakkab fikrlarni tushunishga va mantiqiy tahlil qilishga intiladi, bu esa analitik tafakkurni rivojlantiradi.

So'z boyligini oshiradi. Matnlarda keng va kontekstual leksika ishlatiladi, bu esa talabalarning lug'at zahirasi boyitadi va frazeologik birliklarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Nutqiy ko'nikmalarni integratsiyalashga xizmat qiladi. Talabalar matnni o'qibgina qolmay, u haqida suhbatlashish, yozma fikr bildirish, bahs yuritish kabi faoliyatlarni ham bajaradilar.

Quyidagi jadvalda autentik matnlarning turlari va ularning ta'limiy vazifalari berilgan:

Matn turi	Didaktik vazifasi
Gazeta maqolalari	Fikr bildirish, asoslash, dalillash ko'nikmalarini shakllantirish

Blog va forumlar	Norasmiy uslub, subyektiv fikrlar bilan ishlash
Ilmiy matnlar	Terminologiyani tushunish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish
Reklama matnlari	Konnotatsiyalar, kontekst va pragmatik tahlil
Rasmiy hujjatlar	Formal uslub, struktura va janrlar bilan tanishish

Autentik matnlar talabalarning o'quv materialiga munosabatini o'zgartiradi. Ular sun'iy soddalashtirilgan matnlardan ko'ra murakkabroq bo'lsa-da, yuqori motivatsiya va qiziqishni ta'minlaydi [11].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun autentik matnlar orqali quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish mumkin:

Lingvistik kompetensiya – til birligi, uslub va sintaktik shakllarni real kontekstda anglash.

Diskursiv kompetensiya – matn strukturasini, mantiqiy bog'lanishini, asosiy va ikkilamchi fikrlarni ajrata olish.

Madaniyatlararo kompetensiya – boshqa xalqlarning ijtimoiy, madaniy qadriyatlarini tushunish va ularga nisbatan tolerant munosabat shakllantirish.

Texnologik kompetensiya – onlayn autentik manbalar (BBC, CNN, The Guardian, JSTOR, Google Scholar) bilan ishlay olish.

Chet tillarni bilishning umumyeвроpa kompetensiyalari (CEFR) hujjatlarida autentik matnlardan foydalanish yuqori darajadagi til ko'nikmalarini shakllantirishning muhim komponenti sifatida qaraladi. Ayniqsa, B2 va C1 darajalaridagi talabalar murakkab matnlar bilan ishlashga o'rgatiladi:

B2 daraja: matnning asosiy g'oyasini tushunish, tushunarsiz elementlarni kontekst asosida taxmin qilish.

C1 daraja: noaniq fikrlar, kinoya, nutq o'yinlarini aniqlash, matnga tanqidiy yondashish.

Autentik matnlardan samarali foydalanish uchun quyidagi metodik yondashuvlar taklif etiladi:

Bosqichli yondashuv: pre-reading, while-reading, post-reading bosqichlarida turli topshiriqlar asosida matnni bosqichma-bosqich tahlil qilish [4].

Interfaol yondashuv: juftlikda va guruhda ishlash, matn asosida munozara, roliklar asosida mulohaza yuritish.

Differensial yondashuv: talabalarning darajasiga qarab matn tanlash, murakkablikni bosqichma-bosqich oshirib borish.

Integratsiyalashgan yondashuv: o'qish bilan birga yozish, tinglab tushunish va gapirish kompetensiyalarini ham rivojlantiruvchi mashqlar.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qish kompetensiyasini shakllantirish nafaqat tilni o'zlashtirish, balki mustaqil fikrlash, muloqotda erkin qatnashish, hamda madaniy kontekstni tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun bu kompetensiyani rivojlantirishda autentik matnlardan foydalanish muhim metodik

vosita sanaladi. Ushbu bo'limda autentik matnlar orqali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish usullari va didaktik yondashuvlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

O'qish kompetensiyasi quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topgan:

Kognitiv komponent: matnni tushunish, ma'lumotni idrok etish va tahlil qilish.

Metakognitiv komponent: o'z o'qish strategiyalarini boshqarish, tushunmagan joylarni aniqlash va ularga qayta murojaat qilish.

Lingvistik komponent: leksik va grammatik birliklarni kontekstda to'g'ri talqin qilish.

Madaniy-pragmatik komponent: matndagi ijtimoiy-madaniy konnotatsiyalarni anglash.

Autentik matnlar yuqoridagi barcha komponentlarni bir vaqtda shakllantirish imkonini beradi, chunki ular real kontekstda yaratilgan va tilning tabiiy holatini ifodalaydi.

Autentik matnlar bilan ishlashda uch bosqichli o'qish modeli (tayyorlov-matn oldi bosqichi (pre-reading stage); matnni o'qib tushunish bosqichi (while-reading stage); matndan keyingi bosqich (post-reading stage) asosida tashkil etilgan darslar eng samarali hisoblanadi [4].

Tayyorlov-matn oldi bosqichi (pre-reading stage)ning maqsadi talabalarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, kontekstga oid so'z boyligini faollashtirish, matn bo'yicha taxminiy savollar asosida bashorat qilishni o'rgatishdan iborat. Masalan: "What do you know about the topic of climate change?", "Look at the picture. What do you think this article is about?" kabi savollarga javob beradilar.

Matnni o'qib tushunish bosqichi (while-reading stage) matnni umumiy mazmunini tushunishga qaratilgan faoliyat (skimming), asosiy g'oya va detallarni aniqlovchi mashqlar (scanning), tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi savollar (e.g., Why do you think the author included this example?), annotatsiya, sxema yoki jadval tuzish kabi faoliyatlardan iborat bo'ladi.

Matndan keyingi bosqich (post-reading stage) matn asosida munozara, debat, prezentatsiya tayyorlash, matnga bog'liq yozma topshiriqlar (xulosa yozish, muallifga maktub yozish, fikr bildirish), matndagi g'oyalarni shaxsiy hayot bilan bog'lash (How is this issue relevant to your context?) kabi faoliyatlardan iborat bo'ladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mustahkam o'qish kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi strategiyalarni o'rgatish zarur: matn mazmunini taxmin qilish (predicting); kontekstdan ma'no chiqarish (inferring); umumiy g'oyani tushunish uchun tezkor o'qish (skimming); maxsus ma'lumotni topish uchun o'qish (scanning); matnning asosiy mazmunini qisqacha ifodalash (summarizing); matnga savollar qo'yish orqali chuqur tushunish (questioning); matnni belgilab chiqish, izoh yozish (annotating).

Ushbu strategiyalar ko'p martalik mashq qilish orqali avtomatlashadi va o'qish kompetensiyasining doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Autentik matnlar asosida o'qish faoliyatini interaktiv qilish uchun quyidagi texnologiyalar va usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

CLIL (Content and Language Integrated Learning): Ingliz tilida ilmiy yoki ijtimoiy mavzudagi autentik matnlar orqali ham til, ham mazmun o'rgatiladi.

Task-Based Learning: Matn asosida bajariladigan topshiriqlar (misol: maqola asosida intervyu tuzish, infografika tayyorlash) orqali o'qish amaliy faoliyat bilan bog'lanadi.

Blended learning: Matn bilan ishlash online platformlarda (Google Docs, Padlet, Quizlet) tashkil etiladi.

Jigsaw reading: Matnni qismlarga bo'lib, har bir guruh alohida qismni o'qib, keyinchalik bir-biriga mazmunini tushuntiradi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini autentik matnlar asosida rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, tilni real kontekstda tushunish, va madaniyatlararo muloqotga tayyor bo'lish imkonini yaratadi. Autentik matnlar vositasida olib borilgan faoliyat o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashini, kommunikativ ko'nikmalarini va tilga estetik yondashuvini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to'ldirilgan 2 -nashri. - Toshkent: Talaba, 2012. – 432 b.
2. Saydaliyev S.S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. –Namangan: NamDU, 2000. – 210 b.
3. Soliyev U.Y. Talabalarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (amaliy matematika yo'nalishi misolida). Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. dis. – Namangan. 2024. – B.155.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. 2007. – 216 b.
5. Common European Framework of reference for language learning and teaching / Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. - 204 p.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978. – 315 p.
7. Bruner J. The Culture of Education. Harvard University Press. 1996. – 198 p.
8. Richards J.C., Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Pearson. 2010. – 284 p.
9. Nunan D. Language Teaching Methodology. – Prentice Hall. 1991. – 196 p.
10. Gilmore A. Authentic materials and authenticity in foreign language learning. Language Teaching, 40(2). 2007. – pp. 97–118.
11. Peacock M. The effect of authentic materials on the motivation of EFL learners. ELT Journal, 51(2), 1997. – pp. 144–156.

